

KOREYS TILIDA KELISHIKLARNING TURLARI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Rabbanoyev Javlon Omonkulovich,

Samarqand davlat chet tillar instituti assistent o‘qituvchi

E-mail: javlonrabbanoev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Koreys tilida kelishiklarning turlari va o‘ziga xos xususiyatlari hamda kelishiklarni to‘g‘ri qo‘llash qoidalari misollar orqali to‘liq yoritib berilgan. Koreys tilida hurmat kategoriyasi mavjud bo‘lganligi sababli hurmat kategoriyasida kelishiklardan qanday foydalanish kerakligiga ham alohida misollar orqali tushuntirish berilgan.

Kalit so‘zlar: bosh kelishik, tushum kelishigi, jo‘nalish kelishigi, kontekst, sintaksis, ot, to‘ldiruvchi.

Аннотация. В данной статье всесторонне рассматриваются виды падежей в корейском языке, их специфические особенности, а также правила их правильного употребления с иллюстрацией на примерах. Поскольку в корейском языке существует категория вежливости, особое внимание уделяется объяснению использования падежей в рамках данной категории с приведением соответствующих примеров.

Ключевые слова: именительный падеж, винительный падеж, дательный падеж, контекст, синтаксис, существительное, дополнение.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the types and specific features of cases in the Korean language, as well as the rules for their correct usage, illustrated through examples. Since the Korean language includes a category of honorifics, particular attention is given to explaining how cases are used within the honorific system, supported by relevant examples.

Keywords: nominative case, accusative case, dative case, context, syntax, noun, object.

Kirish. Koreys tili agglutinatív tillar guruhiga kiradi va grammatik munosabatlar asosan qo‘shimchalar orqali ifodalanadi. O‘zbek tilidan farqli ravishda, koreys tilida kelishik ma‘nolari otlarga qo‘shimcha sifatida bevosita qo‘shiladigan ko‘makchi morfemalar, ya‘ni 격조사 (kelishik) orqali ifodalanadi.

Kelishiklar gapda so‘zlarning sintaktik rolini belgilaydi, ya‘ni ega, to‘ldiruvchi, hol va boshqa grammatik funksiyalarni aniqlaydi. Shu jihatdan ular koreys tilining sintaksisida muhim o‘rin egallaydi.

Adabiyotlar tahlili. Koreys tilidagi kelishiklar tizimi va ularning grammatik xususiyatlari koreysshunoslik hamda umumiy tilshunoslik doirasida ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, Kim Jong Suk va Pak Dong Ho tomonidan yaratilgan “외국인을 위한 한국어 문법” asarida koreys tilidagi kelishik yuklamalarining sintaktik va semantik vazifalari chet ellik o‘rganuvchilar uchun izchil tarzda izohlangan. Kim Mun Uk hamda Kim Chun Shikning koreys tili grammatikasiga oid ilmiy-amaliy qo‘llanmalarida esa kelishiklarning qo‘llanish qoidalari, ularning kontekstual va pragmatik xususiyatlari misollar asosida yoritilgan. Mazkur tadqiqotlarda kelishiklarning nutqdagi

funksional ahamiyati, ayniqsa hurmat kategoriyasi bilan bog‘liq qo‘llanishi koreys tilining muhim grammatik xususiyati sifatida talqin etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda koreys tilidagi kelishiklarning turlari va funksional xususiyatlarini o‘rganishda deskriptiv, qiyosiy va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida koreys tiliga oid grammatik manbalar, ilmiy adabiyotlar hamda amaliy misollar asosida kelishik yuklamalarining sintaktik va semantik vazifalari tahlil qilindi. Shuningdek, koreys va o‘zbek tillaridagi kelishik tizimlari qiyosiy jihatdan o‘rganilib, ularning o‘xshash va farqli tomonlari aniqlashtirildi.

Tahlillar va natijalar. Koreys tilida kelishiklar o‘zbek tilidagi kabi o‘zining shaklini o‘zgartirmaydi, balki unga maxsus yuklama qo‘shish orqali ifodalanadi. Bu yuklamalar ot yoki olmoshga qo‘shilib, uning gapdagi vazifasini ko‘rsatib keladi.

Masalan:

학생이 온다 → “Talaba keladi”

책을 읽는다 → “Kitobni o‘qiydi”

Bu yerda:

이 — Bosh kelishik qo‘shimchasi hisoblanib, u qo‘shilgan so‘z gapda ega vazifasini bajarib keladi.

을 — Bu qo‘shimcha tushum kelishigi qo‘shimchasi hisoblanib, u qo‘shilib kelgan so‘z gapda to‘ldiruvchi vazifasini bajarib keladi.

Asosiy kelishik turlari

Bosh kelishik [이/가, 께서, 에서] Koreys tilida 주격 조사 deb ataladi.

Bosh kelishik gapning subyektini bildiradi. Quyidagicha qo‘llanadi:

이 (undoshdan keyin) 학생 + 이 = 학생이

가 (unlidan keyin) 아이 + 가 = 아이가

Misollar:

학생이 공부한다 → “Talaba o‘qiyapti”

아이가 논다 → “Bola o‘ynayapti”

Kishilik olmoshlari 저, 나, 너 larga bosh kelishik 이/가 qo‘shilganda quyidagicha o‘zgarish bo‘ladi.

저+가 = 제가 제가 학생입니다 Men talabaman (hurmatda)

나 +가 = 내가 내가 학생입니다 Men talabaman

너 +가= 네가 네가 학생입니다 Sen talabasan

Eslatma: 이/가 ko‘pincha yangi ma‘lumotni ta‘kidlash uchun ishlatiladi.

Bosh kelishiklardan foydalanganda hurmat kategoriyasida 께서 shaklidan foydalaniladi va kesim ham hurmat kategoriyasida bo‘lishi talab qilinadi.

Misol:

할아버지께서 말씀하시니 조용히 해라.

이번에는 김 선생께서 많은 애를 쓰셨습니다.

Tushum kelishigi (목적격 조사)

Harakatning bevosita obyektini bildiradi. Gapda ot yoki olmoshlarga qo‘shilib, u qo‘shilgan so‘z to‘ldiruvchi vazifasini bajarib keladi.

Quyidagicha qo‘shiladi:

을 (undoshdan keyin) 책 +을 = 책을

를 (unlidan keyin) 영화 + 를 = 영화를

Misollar:

책을 읽다 → “Kitobni o‘qimoq”

영화를 보다 → “Filmni ko‘rmoq”

Qaratqich kelishigi (관형격 조사)

Qaratqich kelishigi ot yoki olmoshlarga qo‘shilib, ular orasidagi egalik yoki tegishlilik munosabatini bildiradi. Qaratqich kelishigining qo‘shimchasi 의 hisoblanadi. Otlarga qo‘shilishida padchim bor yo‘qligiga qaramasdan bir xil qo‘shiladi.

Misollar:

친구의 책 → “Do‘stning kitobi”

한국의 문화 → “Koreya madaniyati”

Kishilik olmoshlari 저, 나, 너 larga qo‘shilganda quyidagicha o‘zgarish bo‘ladi.

저+의 = 제 제 공책입니다 Mening kitobim (hurmatda)

나 +의= 내 내 공책입니다 Mening kitobim

너 +의= 네 네 공책입니다 Sening kitobing

Eslatma: og‘zaki nutqda qaratqich kelishigi ko‘pincha tushirib qoldiriladi.

Jo‘nalish kelishigi (부사격 조사: 에, 에게, 한테)

Jo‘nalish kelishigi ot yoki olmoshlarga qo‘shilib harakat yo‘nalishini yoki manzilni bildiradi.

에 — joy va vaqt

에게 / 한테 — shaxsga nisbatan

Misollar:

학교에 간다 → “Maktabga boradi”

친구에게 편지를 쓴다 → “Do‘stga xat yozadi”

Chiqish kelishigi (에서)

Chiqish kelishigi otlarga qo‘shilib harakatning boshlanish joyi yoki sodir bo‘lish o‘rnini bildiradi.

Misollar:

학교에서 왔어요 → “Maktabdan keldim”

집에서 먹는다 → “Uyda ovqat yeydi”

Eslatma: Chiqish kelishigi bosh kelishik vazifasida ham kelishi mumkin.

Misol: 학교에서 소풍을 갑니다. Maktab ekskursiyaga boryapti.

Koreys tilida so‘z tartibi nisbatan erkin bo‘lsa-da, kelishiklar gap ma‘nosini aniqlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Misol:

학생이 책을 읽는다

책을 학생이 읽는다

Ikkala gap ham “Talaba kitob o‘qiydi” degan ma‘noni beradi, chunki kelishiklar sintaktik rollarni ko‘rsatib turibdi.

Kelishik tushirilishi

Og‘zaki nutqda ayrim kelishiklar tushirib qoldirilishi mumkin, ayniqsa kontekst aniq bo‘lsa.

Misol:

나 밥 먹었어 → “Men ovqat yedim”

(aslida: 나는 밥을 먹었어)

Xulosa. Koreys tilidagi kelishiklar tizimi morfologik jihatdan soddaroq ko‘rinsa-da, ularning funksional qo‘llanilishi murakkab va nozikdir. Har bir kelishik yuklamasi gapda

aniq sintaktik vazifani bajaradi va nutqning aniqligi hamda mantiqiyiligini ta'minlaydi. Koreys tilini chuqur o'rganishda kelishik yuklamalarini to'g'ri qo'llash, ularning semantik va pragmatik farqlarini tushunish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 외국인을 위한 한국어 문법 1 대한민국, 서울 2005. 김정숙, 박동호
2. Koreys tili grammatikasi 한국어 문법 Toshkent – 2007 Kim Mun Uk
3. Koreys tili grammatikasi 한국어 문법 강의안 Toshkent – 2007 Kim Chun Shik

